

**YANGI ELEKTRON O’QITISH TIZIMI BIZGA QANDAY  
IMKONIYATLAR BERDI.**

**Mamarasulova N.I**

**Yusupov M.I**

**Shayqulov H.Sh**

*Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya  
kafedrasi assistentlari Samarqand Davlat tibbiyot  
universiteti. O’zbekiston.*

**Annotasiya:** keltirilgan ushbu ishda yangi elektron o’qitish tizimi bizga juda keng qamrovli imkoniyatlar berishi to’g’risida, xususan, istalgan manzilda: ta’lim jarayoni olib borilayotgan o’quv xonalari, ilmiy bazalar, talabalar yashash joylari yoki xorijiy safarlar chog’ida ham mt.sammu.uz. elektron o’qitish majmuasiga internet tarmog’i sahifasiga ulanib istalgan tibbiy ta’lim yunalishi kurslarida o’tilayotgan fanlarning mavzularini o’rganish, ma’ruza matnlari bilan tanishish, yoki ularning taqdimoti, videofilm, animasiya shakilini tomosha qilish, test savollari, vaziyatli masalalar va foto – rasimli topshiriqlarni yechish orqali o’z bilimini nazorat qilish kabi imkoniyatlar yaratildi. Mashg’ulot o’tuvchi professor - pedagoglar uchun yagona metodik ta’lim jarayoni bo’lib xizmat qiluvchi zaruriy barcha yo’riqnomalar, xronometraj, kalendar – mavzuli rejalar, talabalar bilimini baholash uslublari, hamda kerakli materiallaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini beradi.

**Kalit so’zlar:** moodle, mt.sammu.uz., yuqori texnologiya, zamonaviy axborot, elektron tizim, kommunikasiya, o’quv elementi, internet.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ko’p martaba ilg’or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish va o’zlashtirishning zaruriyligi ta’kidlanyapti. Yangi asr avlodini tarbiyalashning o’ziga xos metodlaridan eng asosiysi zamonaviy axborot texnologiyalarini oliy o’quv yurtidagi pedagogik jarayonning zaruriy komponenti sifatida qo’llash sanaladi. O’zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy

dasturi»da va yangi taxrirdagi 2020 yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni uzluksiz ta’lim tizimi oldiga har tomonlama kamol topgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlagan, jamiyat, davlat va oila oldidagi o’z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalash kabi davlat buyurtmalari qo’yilgan. Mazkur davlat buyurtmasi oliy o’quv yurtida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayonidantalaba shaxsini rivojlantirish, bilimlarni ongli o’zlashtirish va kelgusida ulardan ongli foydalanishni o’rgatish, raqobatbardosh kadrlarnitarbiyalash kabi vazifalarni talab qiladi.

“Zamonaviy axborot - kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora - tadbirlari to’g’risida”gi qarori masofaviy o’qitish tizimini shakllantirish, zamonaviy ta’lim resurslari va portallar yaratish hamda ta’limni yanada axborotlashtirishda muhim omil bo’lmoqda. Bu hujjatlar mazmuni, maqsad – vazifalari inson omiliga, ya’ni yosh avlodning ijtimoiy faolligi, uning kuch – qudrati, tashabbuskorligi va qiziqishlariga ta’sir qilishga qaratilgandir. Mamlakatimizda axborot - kommunikasiya texnologiyalari asosida elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish, takomillashtirish va ta’lim jarayoniga joriy etish orqali oliy ta’lim sifatini oshirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi OUMTV huzurida Multimediali umumta’lim dasturlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda, aynan, masofaviy o’qitish imkonini beruvchi elektron o’qitish tizimi markazlari tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda e’tirof etilgan MOODLE – o’qitishni boshqarish tizimi negizida institut rektorining tashabbuskorligi va kafedra – kurs professor – o’qituvchilarining bir necha oylik samarali mehnati natijasida Samarqand Davlat tibbiyot universiteti masofaviy elektron ta’lim tizimi bo’lgan mt.sammu.uz. elektron majmuasi muvaffaqiyatli yaratildi va halqaro internet tizimida faoliyatni boshladi. Endilikda ushbu elektron o’qitish materiallaridan professor – o’qituvchilarning va eng muhimi talabalarning foydalanish imkoniyati kengaydi, xususan, istalgan manzilda: ta’lim jarayoni olib borilayotgan o’quv auditoriyalari, ilmiy bazalar, talabalar yashash joylari yoki xorijiy safarlar chog’ida ham mt.sammu.uz. elektron o’qitish majmuasiga internet tarmog’i sahifasiga ulanib

istalgan tibbiy ta’lim yunalishi kurslarida o’tilayotgan fanlarning mavzularini urganish, ma’ruza matnlari bilan tanishish, yoki ularning taqdimoti, videofilm, animasiya shakilini tomosha qilish, test savollari, vaziyatli masalalar va foto – rasimli topshiriqlarni yechish orqali o’z bilimini nazorat qilish kabi imkoniyatlar yaratildi.

Mashg’ulot o’tuvchi professor - pedagoglar uchun yagona metodik ta’lim jarayoni bo’lib xizmat qiluvchi zaruriy barcha yo’riqnomalar, xronometraj, kalendar – mavzuli rejalar, talabalar bilimini baholash uslublari, hamda kerakli materiallaridan erkin foydalanish imkoniyati yaratildi.

Texnologik nazorat – ta’lim berish faoliyatiga tegishli funksiya bo’lib, texnologiyada ishtirok etayotgan vositalarning texnik holatini aniqlash va baholashdir. Binobarin, qo’llanish zarur bo’lgan o’qitishning texnik (yoki ko’rgazmali vositalar, trenajyorlar va boshqa) qurollarini mashg’ulot oldidan tayyorlash yoki ishlatish jarayonida o’zgaradigan xususiyatlarini belgilab olish ta’lim jarayonining bir tekisda, uzliksiz davom etishni, vaqtidan samarali foydalanishni kafolatlaydi. Yaratilgan elektron o’qitish tizimi aynan yuqorida qayd etilgan xususiyatlarni o’z ichiga qamrab olgan bo’lib, pedagoglarni ertangi mashg’ulotga tayyorlanishi, uni samarali o’tkizish uchun zarur barcha omillarni muhayyo etadi.

Talabalar bilimi va ko’nikmalari sifatini halqaro talablar darajasiga ko’tarish maqsadida joriy etilgan mt.sammu.uz. elektron o’qitish majmuasidan professor – o’qituvchilar va talabalarning bevosita, bepul va sifatli foydalanishni tashkillashtirish maqsadida tizimning maxsus pochtalari xizmat qiladi. Unda talabalar fan mavzularini o’zlashtirish jarayonida paydo bo’ladigan savollarini istalgan professor – o’qituvchiga yo’llashi va undan tegishli javob olishi uchun zarur bo’lgan aloqa bog’lash imkoni mavjuddir. Qolaversa, mt.sammu.uz. elektron o’qitish ta’lim resurslari sifatini yanada yaxshilash bo’yicha professor – o’qituvchilar va talabalarning takliflarini yo’llash imkoniyati ushbu tizimda mavjuddir.

**Xulosa.** Muxtasar qilib aytganda, MOODLE – o’qitishni boshqarish tizimi negizida tashkil etilgan mt.sammu.uz. elektron o’qitish ta’lim resurslari imkoniyatlari zamонавиъ та’lim tizimining barcha talablariga bekamu – kust javob beradi!

Endilikdagi vazifamiz undan foydalanuvchi professor – o’qituvchilar va talabalar tafakkurida faollikni, istiqbolli yangi ta’lim tizimidan keng foydalanish davr talabi ekanligini singdirish lozimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2019 yil 16 yanvardagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4119- son qapoplapi.
2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 2020 yil. 23-sentyabr.
3. Musayev D.A., Turabekov Sh., Saidkarimov A.T., Raximov A.K. Genetikava seleksiya assoslari. “Fan va tyexnologiya”2012. 487 b.
4. Юсупов М. И., Одилова Г. М., Шайкулов Х. Ш.  
ОБ ИЗМЕНЕНИИ СВОЙСТВ КИШЕЧНЫХ ПАЛОЧЕК ПРИ ПОНОСАХ  
У ДЕТЕЙ //Экономика и социум. – 2021. – №. 3-2. – С. 611-616.
5. Одилова Г.М., Жамалова Ф.А., Мамарасулова Н.И./«Методы оценки знаний студентов по модулю микробиология, вирусология и иммунология» / роль инновационных технологий в медицинском образовательном процессе фундаментальных дисциплин и клинической медицины материалы международной научно-практической конференции (Самарканд, 6 мая 2021 г.) под ред. РИЗАЕВА Ж.А.
6. Mamarasulova N. I., Shayqulov X. Sh., Boboqandova M. F., Muratova.Z.T. MIKROBIOLOGIYA, VIRUSOLOGIYA VA IMMUNOLOGIYA FANINI O’QITISHDA MOODLE TIZIMINING AFZALLIKLARI // "OLIY TIBBIY TA'LIM TIZIMI ISLOHATLARI: MARKAZIY OSIYODA TA'LIM "XAB"INI TASHKIL ETISH YO'LIDA"(Maxalliy jurnal) – 2020.
7. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O’zbekiston. 2018. B-15.
8. Mirziyoyev Sh.M. “Taqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy

javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. T., 2017.

9. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 2020 yil. 23-sentyabr.
10. 2019 yil 16 yanvardagi “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-4119- son qapoplapi.
11. Musayev D.A., Turabekov Sh., Saidkarimov A.T., Raximov A.K. Genetikava seleksiya asoslari. “Fan va tyexnologiya”2012. 487 b.
12. Yusupov M. I., Odilova G. M., Shaykulov X. Sh. OB IZMENENII SVOYSTV KIShEChNYIX PALOChEK PRI PONOSAX U DETEY //Ekonomika i sosium. – 2021. – №. 3-2. – S. 611-616.
13. Mamarasulova N. I., Shayqulov X. Sh., Boboqandova M. F., Muratova Z. T. MIKROBIOLOGIYa, VIRUSOLOGIYa VA IMMUNOLOGIYa FANINI O’QITISHDA MOODLE TIZIMINING AFZALLIKLARI // "OLIY TIBBIY TA'LIM TIZIMI ISLOHATLARI: MARKAZIY OSIYODA TA'LIM "XAB"INI TASHKIL ETISH YO'LIDA"(Maxalliy jurnal) – 2020.